TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 360-10-150-Q/25 | Chirchiq shahar hokimligi

Chirchiq shahar aholisining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, **qaror qilaman:**

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunning 39-moddasiga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shahardagi korxona, tashkilot va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 7 foizidan ortiqni tashkil etmagan miqdorida 206 kishini tashkil etadigan;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining **3 foizi**dan oshmasligi hamda xodimlari soni **100 nafar**dan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan

shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining **7 foizi**dan oshmasligi hamda xodimlari soni **20 nafar**dan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Chirchiq shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Chirchiq shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Chirchiq shahar hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun **206 ta** ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 34 kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 97 kishi;

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 58 kishi;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 5 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 11 kishi;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1 kishi miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni 100 nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan **206 ta** ish o‘rinlari umumiy sonining kamida **yigirma besh foizi** miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil

boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Chirchiq shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Chirchiq shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Chirchiq shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunining 40-moddasiga muvofiq, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘lari to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi 2-qismiga muvofiq, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Chirchiq shahar hokimining qarori bajarilmagan taqdirda, jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlarini yaratish majburiyatidan ozod etmaydi.

8. Chirchiq shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Dalimov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Chirchiq shahar hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. S.Irgashev zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Chirchiq shahar hokimi **M.Abduraximov**

Chirchiq shahar hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
360-10-150-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Chirchiq shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:					
				Nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	Odam savdosidan jabrlangan shaxslar
	Jami		**19544**	**173**	**159**	**22**	**80**	**42**	**3**	**11**	**1**
	"MAXAM-CHIRCHIQ" AKSIYADORLIK JAMIYATI	200941518	5552	24	33	3	6	18		5	1
	"CHIRCHIQ TRANSFORMATOR ZAVODI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	200941525	1130	8	11	1	1	6	1	2	
	"O‘ZKIMYOSANOATLOYIHA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	200941533	119	1	1		1				
	"O‘ZBEKKIMYOMASH ZAVODI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	201004028	1023	8	6	1	1	2	1	1	
	"O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	311415426	1538	18	17	2	3	9	1	2	
	CHIRCHIQ SHAHAR OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	204052085	245	2	3		1	1		1	
	CHIRCHIQ SHAHAR TIBBIYOT BIRLASHMASI	200946296	965	7	2	1		1			
	CHIRCHIQ SHAHAR 1-SONLI OILAVIY POLIKLINIKASI	207219428	139	2	1	1					
	CHIRCHIQ SHAHAR 2-SONLI OILAVIY POLIKLINIKASI	207219404	181	3	1	1					

	CHIRCHIQ SHAHAR 3-SONLI OILAVIY POLIKLINIKASI	207219411	121	2	1	1					
	"RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN RUHIY SALOMATLIK ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING PSIXIATRIYA XIZMATI BO‘YICHA TOSHKENT VILOYATI FILIALI" DAVLAT MUASSASASI	200946264	120	1	1		1				
	"RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONA VA BOLA SALOMATLIGI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI DAVLAT MUASSASASINING TOSHKENT VILOYATI FILIALI" DAVLAT MUASSASASI	203108497	522	4	1			1			
	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO‘MITASINING TOSHKENT VILOYATI BOSHQARMASINING CHIRCHIQ SHAHAR BO‘LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200946312	74	1	1		1				
	TOSHKENT VILOYATI KO‘P TARMOQLI TIBBIYOT MARKAZI	206983248	404	4	2	1	1				
	TOSHKENT VILOYATI QON QUYISH STANSIYASI	200946272	55	1	1		1				
	"TOSHKENT VILOYATI YUQUMLI KASALLIKLAR SHIFOXONASI" DAVLAT MUASSASASI	203108505	191	2	1		1				
	TOSHKENT VILOYATI BOLALAR KO‘P TARMOQLI TIBBIYOT MARKAZI	203369664	639	4	2	1		1			
	CHIRHIQ SHAHAR BOLALAR TISH DAVOLASH POLIKLINIKASI	203474463	54	1	1		1				
	"O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	200541019	749	6	2	1		1			
	"CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	207258862	948	4	2	1		1			
	"CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI" DAVLAT MUASSASASI	205800847	57	1	1		1				
	"TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING CHIRCHIQ FILIALI" DAVLAT MUASSASASI	310993445	120	2	2	1	1				
	"CHIRCHIQ OLIMPIYA VA PARALIMPIYA SPORT TURLARIGA TAYYORLASH MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	200946067	249	2	1		1				
	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI CHIRCHIQ SHAHAR POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	200946415	72	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207114274	104	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 3-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205160513	58	1	1	1					

	" CHIRCHIQ SHAHAR 7-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205102211	58	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 15-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205082278	68	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200946304	50	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207126053	55	1	1	1					
	"CHIRCHIQ SHAHAR 1-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	310119192	74	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 2-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900627	75	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 3-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900721	112	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 4-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900706	72	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 5-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206805886	81	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 6-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206905041	58	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 7-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900603	130	1	1	1					
	"CHIRCHIQ SHAHAR 8-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900681	100	1	1		1				
	"TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHRIDAGI 9-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O‘QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900738	128	1	1		1				
	"TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHRIDAGI 10-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O‘QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI " DAVLAT MUASSASASI	204891578	80	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 11-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900659	127	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 12-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900610	127	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 13-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206116485	116	1	1		1				
	"TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHRIDAGI 14-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O‘QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900570	75	1	1		1				

	"TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHRIDAGI 15-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O‘QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203502070	116	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 16-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900587	71	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 17-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900698	92	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 18-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900634	69	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 19-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	311595924	41	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 20-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900674	93	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 21-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900563	127	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 22-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900594	41	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 23-SONLI ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN AQLI ZAIF BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206900642	68	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 24-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900745	113	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 25-SONLI UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206900666	147	1	1		1				
	CHIRCHIQ SHAHAR 26-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	206900714	67	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030808	28	1	1	1					
	"CHIRCHIQ SHAHAR 2-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009958	56	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 3-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207216850	34	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 4-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207216867	44	1	1		1				
	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA’LIM AGENTLIGI TASARRUFIDAGI TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHAR 5-SONLI EKSPERIMENTAL DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030823	59	1	1		1				

	"CHIRCHIQ SHAHAR 6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030830	24	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030847	35	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 8-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009965	62	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 9-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207014668	42	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030919	30	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207014690	60	1	1	1					
	"CHIRCHIQ SHAHAR 12-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	310068645	27	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR MAKTABGACHA TA’LIM BO‘LIMI TASARRUFIDAGI 13-SONLI G‘UNCHA NOMLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309659249	32	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 15-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009973	68	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 16-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	311067227	30	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 17-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009980	62	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 18-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207033953	54	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 20-SONLI KO‘P TARMOQLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030854	50	1	1	1					
	"CHIRCHIQ SHAHAR 21-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009997	40	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 22-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207010000	45	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 26-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207010017	59	1	1			1			
	27-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	207014683	42	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 29-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030862	64	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 30-SONLI KO‘P TARMOQLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030879	48	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 31-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA	207010024	62	1	1		1				

	TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
	"CHIRCHIQ SHAHAR 32-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207010032	52	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 33-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030886	33	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 34-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207010049	70	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 35-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030894	28	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 36-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207030902	34	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 37-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207014708	60	1	1		1				
	"CHIRCHIQ SHAHAR 39-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207010056	50	1	1		1				

Chirchiq shahar hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
360-10-150-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Chirchiq shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Shundan:	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:			
				Nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Jami:			**10458**	**51**	**47**	**12**	**17**	**16**	**2**
1	"TOSHKENT TRAKTOR ZAVODI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	309053845	505	5	4	1	1	2	
2	"1-SONLI STOMATOLOGIYA SHIFOXONASI" MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	201235928	47	1	1	1			
3	"CHIRCHIQ SHAHAR ISSIQLIK TA’MINOTI" MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	206982494	222	2	4	1	1	2	

4	"UZTEX GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO'SHMA KORXONA	204651661	5417	14	10	3	4	3	
5	"INFLOW" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	309810250	972	4	5	1	1	2	1
6	"ALKIM TEKSTIL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	204681499	1858	5	4	1	1	2	
7	"ORZU-TEKS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	206502916	431	4	3		2	1	
8	"LUKBO TEKSTIL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	207092003	433	4	4	1	1	1	1
9	"COMPACT TEXTILES YARN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	303942384	378	10	10	2	5	3	
10	"INDIGO GARMENTS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	304045454	195	2	2	1	1		